



**BOSHLANG'ICH SINF O'QUVCHILARIDA AKSIOLOGIK YONDASHUV
ASOSIDA FALSAFIY TUSHUNCHALARNI SHAKLLANTIRISHNING NAZARIY
ASOSLARI**

Shonazarova Sevara Rashidovna

Termez Pedagogika Instituti

“Boshlang'ich ta'lim metodikasi”

kafedrasi o'qituvchisi

+998938996767

Annotatsiya. Ushbu maqolada Yangi qadriyatlarning yuzaga kelishi, Qadriyatlar falsafasining shakllanishi, aksiologik yondashuvning mazmun mohiyati, aksiologik ongning mavjudligi, Qadriyashunoslik aksiologik ong, qadrlash tuyg`usi, aksiologik bilish, qadriyatli yondashuv, pedagogik jarayonni va uning sub'ektlari bilan o'zaro ta'sirini ochib berish jarayoni yoritilgan.

Kalit so'zlar: qadriyatlar falsafasi, aksiologik yondashuv, aksiologik ong , falsafiy tushunchalar, falsafiy yondashuv, aksiologik bilish, qadriyatli yondashuv, pedagogik jarayon.

“Ta'lim va tarbiya, ..., yoshlarimizning chuqur bilimga ega bulishi, doimiy ustuvor vazifamiz bo'lib qoladi”. Har bir millat tarixi va qadriyatlarini anglamoq uchun uning dini, tafakkuri, badiiy-estetik g'oyasini bilish zarur. Ma'naviyat insonning shunday yetuk fazilatiki, u kishilarda o'zaro muloqotga extiyoj tug'diradi. Har bir shaxs o'z xayoti va taqdirini boshqalarsiz tasavvur eta olmasligi xam ma'naviyatdir [4;18-b].

Ta'lim-tarbiya jarayonida ajdodlarimiz yaratgan bebaxo ma'naviy pedagogik merosdan foydalanish va ularni yoshlar ongiga singdirish bugungi kun pedagogidan katta mahorat talab etadi [8;23-b].

Mutaffakkirlarimiz yaratgan ma'naviy meros yosh avlodni har tomonlama tarbiyalashda eng muxim vosita bo'lib xizmat qiladi. Ijtimoiy borliqda yuz bergan o'zgarishlar bo'layotgan voqea va xodisalar, tushunchalarni tadqiqot ob'ektiga aylanishiga sabab bo'ladi. Ijtimoiy borlikdagi o'zgarishlar va ularni anglash jarayonlari bir-biriga bog'lik xodisalar sifatida yangi tushunchalarni tadqiqot ob'ektiga aylantiradi.

Xususan “qadr” “qadrlash”, “qadr-qimmat” “qadrshunoslik”, “qadriyat” tushunchalarining tadqiqotlar ob'ektiga aylanganini ana shunday extiyojlar bilan izoxlash mumkin. Har bir qadriyatning negizida, mohiyati va axamiyatida tabiat, jamiyat va ruhiy olam xodisalarini bilish, ilmiy umumlashtirish, ijtimoiy va ma'naviy taraqqiyotga ta'sir etish imkoniyatlari yotadi [8, 16].



Yangi qadriyatlarning yuzaga kelishi esa insonning ob'ektiv olam, ma'naviyat borasidagi bilimlari vorislik asosida davom etayotganining ifodasidir. Qadriyatlar inson ma'naviy kamolatga ta'sir etuvchi muhim omil hamdir. Har bir millat rivojlanishidagi tarixiy voqealar, unga ijobiy xissa qushgan shaxslarning tajribalari xam milliy qadriyatlar jumlasiga kiradi [4;46-b].

Antik davr mutafakkirlari "qadriyat", "qadr", "qadrlash", tushunchalarini ijtimoiy borlik, inson faoliyatining baxosi, baxolanishi, boshqalar tomonidan ma'lum bir normalar asosida qadrlanishi tarzida tushunganlar. Qadriyatlar bilan bog'lik masalalar xayotning eng asosiy mavzulari bo'lib xisoblanadi. Qadriyatlarni aksiologiya fani o'rganadi. U keng tarqalgan falsafiy fanlardan biridir. Xozirgi davrda qadriyatlarni o'rganishga oid falsafa, sotsiologiya, madaniyatshunoslik, siyosatshunoslik, psixologiya, antropologiya, pedagogika fanlarida turli izlanishlar olib borilmoqda [5;14-b].

Bu ijobiy hol, albatta. Lekin, shu bilan birga, qadriyatlarni klassifikatsiyalash masalasi chalkashib, xatto, ularni xech qanday asossiz boshqa ijtimoiy voqea va xodisalar bilan bir xillashtirib yuborish xam yuzaga kelmoqda.

Aristotel donishmandlikni, bilimga intilishni "o'z tabiatiga ko'ra eng ko'proq qadrli" narsalar qatoriga kiritadi. U qadrli narsalar, qadriyatlar rang-barangligini, bir individga muvofiq kelgan qadriyatlar boshqa individga to'g'ri kelmasligini, ijtimoiy voqea va xodisalarni har kim qiziqishi va maqsadlariga muvofiq baxolashini, qadrlashini qayd etadi. Ammo, ezgu amallar xammaga birdek qadrli ekanini uqtiradi [1;13-b].

Eng muximi, Aristotel falsafada qaror topgan va barcha aksiologik ta'limotlar asosini belgilab bergan konsepsiyani ilgari surgan. Mazkur konsepsiya uning quyidagi goyasida o'z ifodasini topgan: "Qancha imkoni balsa, shuncha yuqoriga ko'tarilish lozim va barcha narsani, o'zingdagi eng oliy narsa - xayot uchun qilish darkor; agar u o'z ko'lamiga ko'ra oz miqdorda bo'lsada, o'zining quvvati va qadriga ko'ra, u xamma narsadan yuqoridir". Demak, barcha xatti-xarakatlar, amallar xayotga xizmat qilishi, uni e'zozlashi, ulug'lashiga muvofiq qadrlidir.

Qadriyatlar falsafasining shakllanishiga I.Kant katta xissa qo'shgan. Uning "har qanday ongli mavjudot o'zi o'ziga maqsaddir" degan g'oyasi negizida insonga vosita emas, oliy qadriyat sifatida qarash zarur, degan fikr yotadi. Qolgan barcha narsalar, inson mayli, istagi, qiziqishi tufayli "nisbiy qadrga egadir", Nisbiy qadrga ega bo'lgani uchun ular narsalar deb ataladi va inson extiyojlarini kondiruvchi vositalardir. Ongli mavjudotlar shaxslar deb ataladi, chunki ular sub'ektiv



kadriyatlarga egadir. Shu bilan Kant falsafaga “absolyut kadriyat” kategoriyasini xam olib kirdi [8;47-b]

Shu ma’nodan milliy urf - odat va an’analarni yoshlar ongiga singdirish xar qanday millat uchun uz taraqqiyotning maqsad va vazifasi bo’lib qolgan. Mustaqillik yillarida milliy urf - odat va an’analarni tiklash, zamon extiyojlari asosida boyitish va yangilarini shakllantirish borasida katta ishlar amalga oshirildi. Shuning bilan birga ularni yoshlar ongiga singdirish borasida xam sezilarli ishlar amalga oshirildi. Jumladan, to’y va boshqa marosimlarni o’tkazish an’analari tiklandi, ota-onalar bilan farzand o’rtasida avlod-ajdodlarimizdan meros bo’lib kelgan munosabatlarni: ota-onaning oiladagi roli, farzandning ular oldidagi burchlarini anglash kabi an’analarga e’tibor oshdi. Aynan shuning uchun xam ayrim tadqiqotchilar umuminsoniy va milliy qadriyatlar urtasidagi dialektik bog’liqlikni sivilizatsion yondashuv orqali ochib berishga xarakat qiladilar. Chunki sivilizatsiya bugun mintaqalar va elatlarni, xalqlarni birlashtiruvchi, yaqinlashtiruvchi ular o’rtasidagi integratsiyani kengaytiruvchi omil sifatida ko’rsatilmoqda. Shu nuqtai nazardan ular umuminsoniy qadriyatlar tizimining shakllanishini kosmogen sivilizatsiya, texnogen sivilizatsiya, antropogen sivilizatsiyalarga guruxlab o’rganishga intiladilar. Bu esa, shaxs ma’naviyatiga xam ushbu sivilizatsiyaga xos belgilarni shakllantirish nuqtai nazaridan yondashishiga undaydi. “Ba’zilar,-deb yozadi M.Imomnazarov din va ma’naviyat o’rtasidagi farqni topish niyatida,-din va ma’naviyatni bir narsa deb qarashga moyil bo’lishadi. Bu unchalik to’g’ri emas. Har bir insonning o’z dini bo’lmaydi. Dunyoda dinlar ko’p, lekin ular muayyan.

Din-iloxy kitoblar orqali nozil etilgan aloxida qonun-qoidalarni bildiradi. Ma’naviyat qat’iy qonun qoidalar tarzida tasavvur qilinmaydi. Har bir shaxsning ma’naviyati o’ziga xos, har bir o’z ma’naviy olami mavjud”. Tadqiqotchilar fikriga ko’ra, ijtimoiy fazilatlarga bog’langan qadriyat asosan insoniyat va jamiyat manfaatlariga qaratilgan ezgu niyatlar asosida kelib chiqadi [2;15-b].

Ma’lumki, qadriyatlar ijtimoiy xususiyatlarga ega bo’lib, kishilarning xayotiy, kasbiy faoliyati jarayonida kishilarning turli soxalaridagi, avvalo, ishlab chiqarish, mexnat soxasidagi faoliyati uchun foyda keltiradigan narsa va xodisalar majmui bevosita bog’lik ravishda paydo bo’ladi va rivojlanadi. Qadriyat tushunchasiga bir qator ta’riflar keltirilgan. Har bir xalqning milliy qadriyatlarini uning tarixi, ma’naviyati, madaniyati, o’ziga xos urf-odatlarini, an’analarisiz tasavvur qilish qiyin. “Qadriyat deyilganda inson va insoniyat uchun axamiyatli bulgan millat, elat va ijtimoiy guruxlarning manfaatlarini va maqsadlariga xizmat qiladigan va ular



tomonidan baxolanib, qadrlanadigan tabiat va jamiyat ne'matlari, xodisalari majmuini tushunmog'imiz lozim" [1, 48].

Qadriyat-voqelikdagi muayyan xodisalarning umuminsoniy, ijtimoiy axloqiy, madaniy-ma'naviy axamiyatini ko'rsatish uchun qo'llanadigan tushuncha. "Qadriyat inson va jamiyat ma'naviyatining tarkibiy qismi, olamdagi voqealar, xodisalar, jarayonlar, xolatlar, sifatlar, talab va tartiblarning qadriini ifodalash uchun ishlatiladigan tushuncha "Qadriyatlar - jamiyatda kishilar o'rtasida obro'ga, e'tiborga, xurmatga, nufuzga ega kishilar, munosabatlar, xolatlar, moddiy narsalar va ma'naviy boyliklar majmuasi" [3;40-b].

Uning fikricha, qadriyatshunoslik asosan qadriyatlar, ularning namoyon bo'lish shakllari, qadrlash xissi, qadrlash tuyg'usi, realikka qadriyatli munosabat va aksiologik yondashuv, ijtimoiy taraqqiyot jarayonida qadriyatlar soxasidagi o'zgarishlar, qadrlash va qadrsizlanish muammolari, tarixni aksiologik tushunish, qadriyat tizimlarining amal qilish xususiyatlari to'g'risidagi masalalarni o'rganadi.

T.Abdullaev "Turmush soxasida milliy va umuminsoniy qadriyatlarining dialektikasi" nomli doktorlik dissertatsiyasida milliy va baynalminallik munosabatlar bilan bog'lik qadriyatlarni o'rgangan. Qadriyatlar ijtimoiy xususiyatga ega bo'lib, kishilarning barcha faoliyatlari jarayonida paydo bo'ladi. Qadriyatlar insonning turli soxadagi faoliyati uchun zarur bo'lgan va foydali narsalar, xodisalar va ma'naviy jarayonlar majmui bilan bog'lik ravishda yuzaga keladi [3;25-b].

Qadriyatlar falsafasining tarixi uzoq bo'lsada, bu to'gridagi fan aksiologiya o'tgan asrning o'rtalarida shakllandi. Bu atama ilmiy bilimlar soxasiga o'tgan asrning ikkinchi yarmida nemis aksiologi E.Gartman va fransuz olimi P.Lapi tomonidan kiritilgan. Aksiologiyani qadriyatlar to'g'risidagi fan yoki to'g'ridan-to'g'ri qadriyatshunoslik, deb atash mumkin. Har bir fanga o'z nomini bergan asosiy tushunchalar bo'lgani kabi qadriyat tushunchasi xam qadrshunoslik atamasi uchun shunday asos rolini bajaradi. G'arbda ba atama grekcha "axio" (qadriyat) va "logos" (fan, ta'limot tushinchalariga asoslanadi [1;63-b].

Har qanday fanni ilmiy bilimlarning maxsus soxasi sifatida qarash ana shu fanga xos mavzular, funksiyalar, tushunchalar, qonunlar, kategoriyalar borligini xam e'tirof etishni zaruriyatga aylantiradi. Aksiologiya ijtimoiy-falsafiy bilimlarning maxsus soxasi sifatida qarash xam bundan istisno emas. Unda xam bu soxadagi fanlarga xos bo'lgan xamma xususiyatlarni kuzatish mumkin. Qadriyashunoslik aksiologik ong, qadrlash tuyg'usi, aksiologik bilish, qadriyatli



yondashuv va boshqalar asosida to'plangan qadriyatlar to'g'risidagi bilimlar sistemasidir [4;12].

Jaxon ilm-fan taraqqiyoti rivojiga beqiyos xissa qo'shgan qutlug' ona diyorumizdan ilm-fanning barcha soxalari, jumladan, islomiy ilmlarda xam jaxonga dong taratgan buyuk allomalar yetishib chiqqan. Vatanimiz tarixining uchmas saxifalari ana shunday buyuk va mo'tabar zotlarning xayotlari bilan chambarchas bog'likdir. Shu bois vatanimizning "O'zbekiston - buyuk allomalar yurti" deya atalishi ayni xaqiqatdir. Sharqu G'arbni o'zaro bog'lagan, buyuk sivilizatsiyalar tutashgan yurtimiz xududida ilm-fan, madaniyat azaldan rivojlangan [8;36].

Aksiologik yondashuv asosida boshlang'ich sinf o'quvchilarida falsafiy tushunchalarni takomillashtirishning, nazariy asoslarini, ijtimoiy pedagogik zaruratini yoritib berish uchun aksiologik yondashuvning mazmunini ochib berish kerak. Bir qator tadqiqotchilarning ilmiy izlanishlarda aksiologiya fani, aksiologik yondashuv bo'yicha tadqiqotlar olib borilgan. Aksiologiya fani qadriyatshunoslik deb tarjima qilinadi. Inson nimaniki qadriga yetsa, o'sha uning uchun qadriyatga aylanadi. Bir narsaning kadriga yetish uchun uning moxiyatini anglab yetish lozim. Inson avvalo uzligini anglashga urinadi. Odam bolasi o'zligini anglab yeta borgan sari shaxsga aylanib boradi. Demak, inson ma'naviyatiga oid tushunchalar markazida shaxs turadi. Shaxs — o'zligini anglab yetgan, o'z qadrini bilgan insondir.

Inson jamiyat va insoniyatning yangi marralariga chiqqani yoki chiqayotganini aniqlash, o'lchash zarurati madaniyatga qarashning yangi yo'nalishi vujudga kelishiga zamin bo'ladi. Bizningcha, aksiologik yondashuv shunga urinish sifatida vujudga kelgan bulib, unda yaratilgan boyliklarni muayyan saralash xarakati mavjud. Agar qadriyat deganda "jamiyat, inson va insoniyat uchun axamiyatli bo'lgan barcha narsa, xodisa va voqealar» nazarda tutilishiga e'tibor berilsa, xozirgacha mustahkam pozitsiyani egallagan mazkur yondashuv nisbiy ekanligi, madaniyatni to'liq qamrab ololmasligi ayon bo'ladi. Qadriyatshunoslik asosan qadriyatlar, ularning namoyon bulish shakllari, qadrlash xissi, qadrlash tuyg'usi, reallikka qadriyatli munosabat va aksiologik yondashuv, ijtimoiy taraqqiyot jarayonida qadriyatlar soxasidagi o'zgarishlar, qadrlash va qadrsizlanish muammolari, tarixni aksiologik tushunish, qadriyat tizimlarining amal qilish xususiyatlari to'grisidagi masalalarni o'rganadi. Aksiologik yondashuv keng o'rganilgan. Masalan, V.A.Slasyonin pedagogik jarayonni va uning sub'ektlari bilan o'zaro ta'sirini, aksiologik yondashuvlardan foydalanishning ijobiy jixatlarni o'rgangan [12, 14].



Voqelikni o'rganishda ilmiy bilishning boshqa usullari bilan birga aksiologik yondashuv xam katta axamiyat kasb etadi. Ilmiy bilishda olam, undagi narsa, voqea, xodisa va boshqalar qadriyatning inson ongida aks etishi, kadriyatni anglashning reallikka mos kelish qonunlari, daraja va imkoniyatlari, uning me'yor va mezonlarini aniqlash nixoyatda muhim. Bunga umumiy bilish nazariyasi (gnoseologiya) bilan bir qatorda ijtimoiy va tabiiy fanlarning ma'lumotlariga, ayniqsa, oliy nerv sistemasining fiziologiyasi, xissiyot organlari va aqliy faoliyatning dalillariga, mantik, tilshunoslik kabi fanlarning yutuklariga tayaniladi.

Qozoqboy Yo'ldosh va Muxayyo Yo'ldoshning fikricha odamning qadriyatlar dunyosida adashib yurmasligiga xizmat qilish borasida adabiyot ulkan imkoniyatlarga ega. Sababki, odam badiiy asar bilan tanishayotganidayok, xissiy muvozanatdan chiqib, o'zi xam bilmagan xolda, tasvirlanayotgan adabiy qahramonlar xatti-xarakatlarini baxolay boshlaydi. Ya'ni adabiyot ihlosmandida o'z-o'zidan tabiiy ravishda baxolash-aksiologik tajriba shakllaia boradi. To`gri, inson axloq, din, siyosat, ishlab chiqarish, tijorat, ta'lim-tarbiya va boshqa xil son-sanoqsiz nobadiiy faoliyat yechimida xam aksiologik yondashuvlar qurshovida bo`ladi

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Qiyom Nazarov. Qadriyatlar falsafasi (Aksiologiya) // Toshkent-Faylasuflar milliy jamiyati nashriyoti - 2004 –B. 12-14.
3. Рассел Б. История западной философии. — М.: Наука, 1959. 259-бет.
4. Бозоров О., Худойкулов А. Ахлокий кадриятлар ва ислом.- Самарқанд.: Зарафшон, 1992.
5. Тайланова Ш.З. Педагогика: Оилаларда кадриятлар тизимини ривожлантиришда хаётий мақсадларни карор топтиришининг урни / «Мугаллим Хэм узликсиз билимлендириу» №1. - Нукус: 2021. Б. 12.
6. Shonazarova, S. . (2023). BOSHLANG`ICH SINFLARDA TABIIY GEOGRAFIK FANLARNING NAZARIY MUAMMOLARI. Nauka i texnologiya v sovremennom mire, 2(22), 4–6.
7. Babanazarovich N. H., & Rashidovna, S. S. (2021). Methodology Of The Development Geographical Concepts In School Pupils. Web Of Scientist: International Scientific Research Journal, 2(12), 341-348
8. Rashidovna, S. S. (2024, February). GEOGRAFIYA FANIDAN SINFDAN TASHQARI MASHG`ULOTLARDA O`QUVCHILARNING KREATIV QOBILİYATLARINI RIVOJLANTIRISHGA QARATILGAN PEDAGOGIK



OMILLAR. In INTERNATIONAL CONFERENCE ON INTERDISCIPLINARY SCIENCE (Vol. 1, No. 2, pp. 215-219).

9. Shonazaova Sevara Rashidovna, & Nazarova Parizoda Shavkat kizi. (2023). PEDAGOGICAL FOUNDATIONS OF FORMATION OF GEOGRAPHICAL CONCEPTS IN ELEMENTARY SCHOOL STUDENTS. Open Access Repository, 4(3), 1516–1523.

10. Shonazaova Sevara Rashidovna. (2023). THE SIGNIFICANCE OF MODERN LESSONS ON THE FORMATION OF GEOGRAPHICAL CONCEPTS IN THE TEACHING OF NATURAL SCIENCES. World Bulletin of Social Sciences, 22, 252-254.

11. Shonazarova Sevara Rashidovna. (2023). IMPROVING GEOGRAPHICAL KNOWLEDGE IN PRIMARY EDUCATION. Open Access Repository, 10(10), 29–32.

12. Rashidovna, S. S. (2024, February). «TABIIY FANLAR (SCIENCE)» DARSLARIDA XALQARO BAHOLASH DASTURIGA KIRITILGAN AMALIY TOPSHIRIQLARDAN FOYDALANISH. In INTERNATIONAL CONFERENCE ON INTERDISCIPLINARY SCIENCE (Vol. 1, No. 2, pp. 210-214).

13. Ziyaqulova Maftuna Shuhrat qizi and Feruza Hayitova Abdullayevna, “THE ROLE OF PICTURES IN THE FORMATION OF STUDENTS’ CREATIVE ABILITY IN LITERACY LESSONS”, IEJRD - International Multidisciplinary Journal, vol. 6, no. 4, p. 3, Jul. 2021.

14. Ziyaqulova Maftuna Shuhrat qizi “Enhancing creativity in the process of developing students’ speech “ The American Journal of Social Science and education Innovations (ISSN – 2689-100x) Published: June 28, 2021 | <https://doi.org/10.37547/tajssei/Volume03> Иссые06-24 IMPACT FACTOR 2021: 11. 857 OCLC – 1121105668 Pages: 140-143 Америка